

From the history of Khorezm rulers' struggle against Arab invasion

Ismoiljon BOYMIRZAYEV¹

National Research University-Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2025

Received in revised form

15 July 2025

Accepted 15 July 2025

Available online

25 August 2025

Keywords:

Khwarazm,
Arab conquest,
Khwarazmshahs,
resistance movements,
Caliphate,
Transoxiana,
political struggle,
8th century,
local rulers,
military history.

ABSTRACT

This article explores the Arab conquest of Khwarazm in the 8th century and the political and military resistance carried out by the rulers of Khwarazm. During the military expansion of the Arab Caliphate in the region of Transoxiana, Khwarazm endeavored to preserve its independence through various political, diplomatic, and military strategies. Particular attention is paid to the resistance during the reign of Khwarazmshahs such as Azkajush and Khurzad, internal conflicts, and the eventual Arab occupation of the region. The study also examines how this resistance was reflected in the consciousness of the local population and its historical significance for Khwarazm.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss4-pp58-68>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Xorazm hukmdorlarining arablar istilosiga qarshi kurashi tarixidan

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Xorazm,
Arab istilosi,
Xorazmshohlar,
qarshilik harakatlari,
xalifalik, Movarounnahr,
siyosiy kurash,
VIII asr,
mahalliy hukmdorlar,
harbiy tarix.

Mazkur maqolada milodiy VIII asrda Xorazm hududiga bo'lgan arablar istilosi va unga qarshi Xorazm hukmdorlarining olib borgan siyosiy-harbiy kurashlari yoritilgan. Arab xalifaligining Movarounnahrda harbiy ekspansiyasi jarayonida Xorazm o'z mustaqilligini saqlab qolish uchun ko'plab siyosiy, diplomatik va harbiy harakatlarga boshchilik qilgan. Maqolada ayniqsa Xorazmshoh Azkajush, Xurzod va boshqalar davridagi qarshiliklar, arablar bilan bo'lgan to'qnashuvlar, ichki ziddiyatlar va oxir-oqibat arablar tomonidan Xorazmning bosib olinishi jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu qarshiliklarning mahalliy aholi ongida qanday aks etgani va Xorazm tarixidagi o'rni ham o'rganilgan.

¹ Independent Researcher, National Research University-Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers. E-mail: ismoiljonboymirzayev@gmail.com

Из истории борьбы правителей Хорезма против арабского нашествия

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Хорезм,
арабское завоевание,
хорезмшахи,
движения сопротивления,
халифат,
Мавераннахр,
политическая борьба,
VIII век,
местные правители,
военная история.

В данной статье освещены арабские завоевания Хорезма в VIII веке и политико-военные действия правителей Хорезма против этих нашествий. В условиях военной экспансии Арабского халифата в Мавераннахре хорезмские правители стремились сохранить независимость, предпринимая ряд дипломатических, политических и военных шагов. Особое внимание в статье уделено сопротивлению в период правления хорезмшахов Азкажуша, Хурзада и других, а также внутренним конфликтам и последующему захвату Хорезма арабами. Также рассматривается, как эти события отразились в сознании местного населения и каково их значение в истории Хорезма.

KIRISH

Tarixiy shaxslar faoliyatiga baho berishda ular yashagan davr, siyosiy sharoit, ijtimoiy voqeliklarga xolis yondashish talab etiladi. Bu esa o'sha shaxsga nisbatan jamoatchilikda to'g'ri fikr shakllanishiga xizmat qiladi. Tariximizda munosib iz qoldirgan siymolarni o'rganish boy tarixiy merosga ega xalqimizning o'zligini anglashiga hissa bo'lib qo'shiladi. Garchi qadimidan bugunga qadar bo'lgan voqeliklar ilmiy adabiyotlar, badiiy asarlar va hattoki darsliklarda o'z o'rnini topayotgan bo'lsa-da, oldinda qilnadigan ishlar behisobdir. Jumladan tarixiy siymolarning hayoti va faoliyatini yoritish, tarixiy jarayonlardagi o'rniga baho berish, yutuqlarini o'rganish va kamchiliklaridan xulosalar chiqarish hozirgi kunimiz uchun muhim ahamiyat ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tarixiy manbalarda arablarning Xorazmga yurishi haqida turlicha ma'lumotlar uchraydi. Ushbu ma'lumotlar asosida mustaqillik yillarida e'lon qilingan ilmiy adabiyotlarda Qutayba tomonidan 711-712-yillarda amalga oshirilgan yurish tafsilotlarigina uchraydi [1]. Ammo Beruniy asarida Qutayba ikkinchi marta ham bosqinchilik yurishini amalga oshirilganligi yoziladi [2]. Bu haqida Abu Rayhon Beruniy quyidagicha ma'lumot beradi: "Payg'ambar alayhissalom kelgan vaqtda, Xorazm shohlaridan Arsamux ibn Buzgor ibn Xomgariy ibn Shovush Sixr ibn Azkojvor ibn Askajmuk ibn Saxxasak ibn Bag'ra ibn Ofrig' podshoh edi. Xorazm aholisi [islom dinidan] qaytgandan keyin, Qutayba ibn Muslim Xorazmni ikkinchi marta fath qilgach, xorazmliklarga Askajmuk ibn Azkojvor ibn Sabriy ibn Sixr ibn Arsamuxni podshoh qildi va uni podshohlikka ko'tardi. Xisravlar nasli qo'lidan viloyat ketib, ularda faqat shohlik nomi qoldi, chunki shohlik ularga merosdek edi. Tarix, musulmonlar rasmiga muvofiq, hijriy [yilga] ko'chirildi" [3].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Arablarga qarshi kurash masalasida Xorazm hukmdorlari hijriy 21-yilda (milodiy 642-yilda) tarixiy manbalarda tilga olinadilar. Ibn al-Asirga ko'ra hijriy 21-yilda Xorazmga arablarga qarshi kurashishda yordam berish maqsadida Erondan maktub keladi. Unda: "Eron Kisrosi ham Bobu-l-Abvob, Xorazm va Hulvondagi podshohlarga

xatlar yozib, holatni bayon qilgan va ular harakatga kelib, oralarida xabar almashishib, Nihovandda yig'ilishga kelishib, u yerda jam bo'lgan edilar" [4]. Manbadagi ma'lumotlar mazmunidan Xorazm podshohi askarlari bilan Nihovandga so'nggi Eron shohi Yazdegirdga yordamga yetib borgan.

Ba'zi rivoyatlarga ko'ra shu yil ichida Ahnaf ibn Qays Xorazm ustiga bir yurish qilgan. Boshqa bir rivoyatda esa bu yurish hijriy 18-yilda (milodiy 639/640-yilda) sodir bo'lgani aytilgan. Xorazmning fath etilishiga sabab sifatida quyidagi voqealar qayd etilgan: Jalula ahli katta mag'lubiyatga uchraganidan so'ng, Yazdegird Rey shahriga borib joylashgan va u yerda turganida uni Abon Jozuya hujum qilgan. Shunda Yazdegird unga: "Ey Abon ! Yoki sen menga xiyonat qilmoqchimisani?" degan, u esa: "Yo'q, biz senga xiyonat qilmayapmiz, lekin sen mulk va taxtingni boshqalar qo'lida qoldirib, bu yerlarga kelding. Men esa haqim bo'lgan bir narsani yozdirmoqchiman", deb javob bergan va Yazdegirdan muhrini olib, xohlagan miqdorda hujjat yozdirib, uni muhri bilan muhrlagan. Lekin keyinchalik Sa'd bu yerga kelgach, u yozdirgan hujjatlarni mutlaqo qabul qilmagan va uni qaytarib bergan.

Yazdegird Reydan Isfahonga, u yerdan Kirmonga borgan va o'z ila birga otashkadani olib yurgan. Kirmondan Xorazmga va u yerdan Marv shahriga kelib u yerda iqomat qilgan, u yerda u hujumlardan omonda yashashga muvaffaq bo'lib, katta bir otashkada qurdirgan va o'z ila yaqin bo'lgan ajamlar bilan u yerda joylashgan. Yazdegird u yerdan Hurmuzonga maktublar yozgan va shu orada Fors viloyatlari ahli ham isyon qilib, ahdlarini buzgan edilar. Shuningdek, tog'li hududlar ahli va Firuzon ham bu isyonga qo'shilib, ahdlarini buzganliklari sababli Hazrati Umar musulmonlarga bu viloyatlarga kirishga ruxsat bergan [5].

Shundan keyin Ahnaf Xorazmga yo'l olgan, Xorazm viloyatlariga kirib, Hirotni qilich bilan fath qilgan va u yerda Suhar ibn Fulon al-Abdiyni vali sifatida qoldirgan. Ahnaf bu yerdan Marv ash-Shahjon tomon yo'l olgan, Nisoborga Mutarrif ibn Abdulloh ibn ash-Shixirni, Hassanning o'g'li Harsni esa Saraxsga yuborgan edi. Ahnaf Marv ash-Shahjonga yaqinlashganda, Yazdegird u yerdan chiqib Marv ar-Ruzga ko'chgan edi. Ahnaf esa Marv ash-Shahjonda iqomat qilgan edi. Shu orada Yazdegird Marv ar-Ruzda turganida Turk xoqoniga, Sug'd va Xitoy podshohlariga maktublar yozib, ulardan yordam so'ragan [6].

Xorazmda iqomat qilgan musulmonlar ham u yerdan qochib, sulh tuzishni qabul qilmaganlarni ta'qib qilgan va Nisobor bilan Tohoriston orasida ularni quvlashgan. Shundan keyin Ahnaf Marv ar-Ruzga qaytib u yerda iqomat qilgan va Tohoristonda Robiy ibn Omirni vali qilib qoldirgan. Ahnaf bu fathlarning barchasini Hazrati Umarga maktub orqali xabar qilgan va bundan boxabar bo'lgan Hazrati Umar shunday degan edi: "Biz bilan bu hudud orasida olovli bir dengiz bo'lishini xohlar edim". Uni shunday deb eshitgan Hazrati Ali: "Nega, ey mo'minlarning amiri?" deb so'raganida, Hazrati Umar: "Bu hudud ahli uch marta o'z joylaridan qo'chiriladi, va uchinchisida butunlay yo'q qilinadilar. Lekin ularning bu ahvollari o'sha kungi musulmonlarning holidan menga ko'proq yoqadi", deb javob bergan. Shundan keyin Hazrati Umar Ahnafga maktub yozib, unga Jayhun daryosidan o'tmaslikni tavsiya qilgan. Yazdegird u yerdan mag'lubiyat bilan daryoni kesib o'tganidan so'ng Turk xoqonidan Farg'ona va Sug'd hududlaridan olgan yordamlar bilan qaytib kelgan va Xorazmga kirgan [7].

Ammo baribir al-Ahnaf Xorazmni egallay olmagan. Bunga hali arablarning resurslari yetishmas hamda Eron sosoniylari to'liq mag'lubiyatga uchratilmagan edi. Shuningdek, manbalarda arablar tomonidan Xorazm egallanishiga mone'lik qiluvchi jihatlar ham aniq ma'lum qilingan.

Tabariy bergan ma'lumotga ko'ra, Xorazm boshqa Markaziy Osiyo davlatlari bilan arablarga qarshi ittofoqqa qo'shiladi. Hijriy 61-yilda / 680–681-yillarda Xazorasp qal'asida arablar bilan bitim tuzmaslik va ular bilan boshqa Markaziy Osiyo davlatlariga qarshi harbiy yurishlarda qatnashmaslik to'g'risida shartnoma imzolaniadi [8]. Ammo bu shartnomani imzolagan mahalliy hukmdorlar amalda o'zlarining hech bir maqsadlariga erisha olmadilar. Ayni shu, shartnoma imzolangan yilida arablarning Xorazmga dastlabki yurishi haqida Ibn Qutayba va Ibn al-Asir asarlarida ayrim ma'lumotlar uchraydi. Yuqoridagi ma'lumotlarga ishonilsa, Yazid ibn Muoviya (milodiy 681–683) davrida Xuroson hokimi bo'lgan Ziyod [9] Xazoraspga hujum qilib, xorazmliklarni arablar bilan shartnoma majbur qildi, Balozuriyga ko'ra, ular arablarga 400 000 dirham to'ladilar [10]. Tabariy asarida esa o'lpon miqdori 1 000 000 ekanligi keltirilgan [11]. Xorazmliklarga hech kim yordamga kelmadi. Bu aslida arablarning Xorazm yerlariga amalga oshirilgan birinchi bosqinchilik yurishi hisoblanadi.

Hijriy 85-yil milodiy 704–705-yilda, xalifalikning barcha sharqiy viloyatlari voliysi Hajjo binni Yusuf Xuroson hokimi Yazid ibn Muxallabga Xorazmga harbiy yurish tashkil etishni buyuradi. Ammo bu yurish, Xorazmda boy harbiy o'lja yo'qligi, qishning sovuq va erta kelishi tashkillanadigan harbiy yurish harajatlarini qoplamasligi sababli amalga oshmaydi. Shundan keyin, Hajjo Yazidni Bag'dodga chaqiradi. Bundan havotirga tushgan Yazid Hojajga maktub yo'llab, Xorazmga qarshi hujum boshlash niyatida ekanligini ma'lum qiladi. Hajjo o'z javobida agar Xorazm haqiqatan ham Yazid ta'riflaganidek bo'lsa, balki harbiy yurishdan voz kechish kerak, deb yozadi [12]. Masalan, "Hajjo Yazidga: "Xorazmga g'azot qil", deb maktub yozgan, Yazid esa unga: "U yerda g'animat oz, bizga qarshi turadiganlar esa ko'p", deb javob bergan. Shunda Hajjo: "O'rningga bir vakil tayinla va mening huzurimga kel", deb aytdi. Keyinroq Yazid: "Men Xorazmga g'azot qilmoqchiman", deb yozgach, Hajjo: "Yo'q, u yerga g'azot qilma, u sen aytgandek joydir", deb javob berdi. Ammo Yazid Hajjojga itoat qilmay, g'azot qildi. U yerliklar bilan sulh tuzdi va bir necha kishini asirga oldi" [13]. Tabariyga ko'ra, Yazid mazkur javobga qaramay, Xorazmga yurish qiladi va uning hukmdorini arablar bilan tinchlik shartnomasini imzolashga majburlaydi. Shundan keyin Yazid katta o'lja va bir necha yuz harbiy asirlar bilan Xazoraspga qaytib keldi [14].

Dastlab, birinchi yurish tafsilotlariga to'xtalsak. Xorazm (خوارزم) – Amudaryoning quyi oqimi havzasida Orol dengizi yonida joylashgan viloyat. Boshqa manbalarda uning nomi Xvorazm (خوارزم) shaklida keltirilgan. Ibn A'sam keltirgan ma'lumotga ko'ra, Xvorazm podshohining ismi Jang'on (جنگان) bo'lib, uning qo'l ostida 400 ming otliq askar bor edi [15]. Arablar istilosi davrida Xorazmni idora etgan hukmdor xitoy manbalarida Shao-fen (Shavushfar), al-Beruniy asarida Askayamuk, Xalifa bin Hayyot, Tabariy, Balozuriy va boshqa arab tili manbalarida Chag'on, Xamjird nomi bilan tilga olingan [16].

Xurrazod (خرزاد) – Xvorazm hukmdori xvorazmshohning ukasi. Uning ismi qadimgi eroniy xwr va zad so'zlaridan yasalgan bo'lib, "quyoshdan yaralgan" ma'nosini bildiradi. Xvorazmliklar m. a. II ming yillikda Erondan ko'chib kelgan qadimgi eroniy kelgindilar va mahalliy turkiy qabilalarning qorishuvidan kelib chiqqan.

Xvorazmshoh tabiatan zaif odam edi, shuning uchun uning ukasi Xvorazmda xohlagan ishini qilar edi. U qo'l ostidagilardan kimda chiroyli cho'ri, yaxshi ot yoki qimmatbaho narsa borligini bilib qolsa, odam yuborib, uni tortib olar edi. Kimning chiroyli qizi, singlisi yoki xotini borligini bilsa ham o'ziga tortib olar edi. Shunday qilib, u istagan narsani o'ziniki qilar va xohlagan odamni hibsga olardi. Hech kim unga qarshilik

ko'rsata olmas edi. Xvorazmshoh ham unga e'tiroz bildira olmas edi. Xvorazmshoh uzoq vaqt bunga chidab yurdi, oxiri sabr kosasi to'lib, Qutayba ibn Muslimga xat yozdi va uni Xvorazmga taklif etdi. U Marvga Qutaybaga Xvorazm shaharlarining 3 ta oltin kalitini yubordi va ukasi Xurrazodni ham unga topshirishini aytdi, lekin bu haqida atrofida gilardan hech kimga og'iz ochmadi. Shundan keyin 93/711-12-yilda Qutayba as-Sug'dga yurishga chiqqani haqida ovoza tarqatdi, lekin aslida u qo'shini bilan Xvorazmga yo'l oldi. Xvorazmshoh ham o'zining odamlarini tinchlantirib, ularga Qutayba Xvorazmga kelmasligi va as-Sug'dga ketganini ta'kidladi. Ular bundan tinchlanib, o'zlarini xavfsizlikda ekanligiga ishonidilar va sergaklikni yo'qotib, aysh-ishratga berildilar. Shu vaqt Qutayba qo'shini bilan Hazorasbga kelib, Balx daryosining yoqasida to'xtadi. Xvorazmshoh ham daryoning narigi qirg'og'iga kelib, al-Fil shahrida to'xtadi. Ular o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralar natijasida sulh tuzildi. Unga ko'ra, xvorazmshoh Qutaybaga 10 ming bosh qul, pul va mol-mulk berish, Qutayba esa xvorazmshohga uning dushmani bo'lgan Hamjird hukmdoriga qarshi yordam ko'rsatish majburiyatini oldi. Qutayba shu zahoti Hamjirdga ukasi Abd ar-Rahmonni qo'shin bilan yubordi. Abd ar-Rahmon Hamjirdga borib, uning hukmdori bilan jang qildi va uni o'ldirib, yerlarini bosib oldi. Keyin u yerdan Qutaybaning oldiga 4 ming asir bilan qaytdi. Qutayba ularning hammasini qatl etishni buyurdi. Keyin Qutayba xvorazmshohning ukasi Xurrazod va u bilan birga bo'lgan odamlarning hammasini ushlab, xvorazmshohga topshirdi. Xvorazmshoh ularni qatl etdi, ularning mol-mulkklarini esa musodara qilib, Qutaybaga topshirdi. Qutayba al-Fil shahriga kirib, xvorazmshohdan sulhda kelishilgan hamma narsalarni qabul qilib oldi. Shundan so'ng, Qutayba Hazorasbga qaytdi. Aytishlaricha, Qutayba Xvorazmdan hammasi bo'lib 100 ming bosh qul olib ketdi va Samarqandga yurish qildi [17]. Ibn A'samga ko'ra, Xvorazm podshohi Jang'on (جنگان) Qutayba ibn Muslimga 100 ming bosh qul berdi [18].

Yuqoridagi ma'lumotlarda Xvorazm poytaxti Kotning chekkasida joylashgan qadimgi al-Fil shahri nazarda tutilgan. Bu shahar bir-birining ichida joylashgan 3 ta qal'adan iborat bo'lib, ular balandligi bo'yicha farq qilgan va bir-birining ustida joylashgan. Eng baland yerdagi ichki qal'ada podshohlarning qasrlari qurilgan [19].

Endi Fil qal'asi haqidagi manbalarda uchraydigan fikrlarga to'xtalsak. al-Fil (الفيل) yoki al al-Fir (الفير) – qadimgi Xvorazm poytaxti Kot shahrining chekkasida joylashgan qal'aning nomi. Beruniy keltirgan ma'lumotga ko'ra, Iskandar Zul-Qarnayn yil hisobi bo'yicha 616-yilda, ya'ni mil. IV asrning boshlarida qadimgi Xvorazm podshohi Afrig'ning o'g'li taxtga o'tirganda, al-Fir (الفير) qal'asining eng baland yerida o'ziga qasr qurdirgan. Bu qal'a Xvorazmning bosh shahri (Madina), ya'ni Kot (كاث) shahrining chekkasida joylashgan bo'lib, paxsa va xom g'ishtdan qurilgan. U bir-birining ichida joylashgan 3 ta qal'adan iborat bo'lib, ular balandligi bo'yicha farq qilgan va bir-birining ustida joylashgan. Eng baland yerda podshohlarning qasrlari qurilgan. Qadimgi al-Yamanda San'o' shahridagi G'umdon qal'asida ham at-tubba' podshohlarining qasrlari xuddi shunday joylashgan. Manbalarda Fil qal'asining mustahkamligi, egallash qiyinligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, "Xorazmshoh yo'lga chiqib, daryoning narigi tomonidagi Fil shahriga tushdi. Bu uning mamlakatining eng fath qilishi mushkul shahri edi. Qutayba esa daryoni kesib o'tmadi. Xorazmshoh xabar yuborib, o'n ming bosh, josuslik qilish, mol berish va Homjirdga qarshi unga yordam berish sharti bilan tinchlik so'radi, Qutayba ham uning bu taklifini qabul qildi" [20].

Kot shahridagi al-Fir qal'asi 10 mil dan ham ko'proq masofadan ko'rinib turgan. Uni Jayhun daryosining suvi har yili oz-ozdan yuvib, asta-sekin yo'q qilgan va Iskandar yil hisobi bo'yicha 305-yilda, ya'ni mil. 993-yilda undan hech narsa qolmagan. Bu ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, al-Fil (al-Fir) qal'asi eng baland yerda joylashgan ichki qal'a bo'lgan. Lekin boshqa manbalarda ham al-Balozuriy singari bu 3 ta qal'aga nisbatan madina (مدينة) yoki mado'in (مدائن) atamasi qo'llanilgan. 93/711-12-yilda xvorazmshoh al-Fil shaharlarining 3 ta oltin kalitlarini Marvga Qutayba ibn Muslimga yubordi [21]. Shuningdek, al-Fil bilan birga Vabil (وبيل) nomli yer ham qayd etilgan [22]. Ehtimol, bu al-Fil qal'asidan pastroqda joylashgan ikkinchi qal'aning nomi bo'lishi mumkin. Ibn Xordadbehning ma'lumotiga ko'ra, al-Fil (الفيل) Xvorazmning poytaxti bo'lib, Balx daryosi, ya'ni Amudaryoning ikkala qirg'og'ida joylashgan [23]. Ibn al-Fakih Xvorazm poytaxtining nomini Bil (بيل) shaklida keltirgan va daryoning o'ng tomonida joylashgan deb ko'rsatgan. Keyinchalik esa bu shahar al-Mansura deb atalgan. Yoqut al-Hamaviy yanglishib, bu ma'lumotni Xvorazmning o'rta asrlardagi poytaxti al-Jurjoniya, ya'ni Gurganj (hozirgi Urganch) shahriga taalluqli deb bilgan. Ibn Havqalning ma'lumotiga ko'ra, Xvorazmning qadimgi poytaxti Kos Darxosh (كاث درخاش) deb atalgan. Bu shahar kuhandiz va madinadan iborat bo'lgan. Uning jome masjidi va bozorlari shaharning madina qismida joylashgan. Uning bozorlari katta va qulay, savdosi esa chaqqon bo'lgan. Shaharning o'rtasidan Xarkrur (خركرور) nomli daryo oqib o'tgan, shahar shu daryoning ikki tomonida joylashgan, bo'yiga 1/3 farsax, eniga ham 1/3 farsax maydonni egallagan. Bu shaharni daryoning suvi yuvib ketgan. Keyin odamlar uning yonida yangi shahar qurganlar. Shunday qilib, manbalardagi ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, Xvorazmning qadimgi poytaxti bo'lgan shahar Fil (Fir, Bil) deb atalgan. Uni suv yuvib ketgandan keyin, uning yoniga yangi shahar qurilgan va Kot deb atalgan. Shuning uchun ayrim manbalarda Kot shahri Fil (Fir, Bil) deb ham atalgan. Bu nomning asosida sug'dcha fyr yoki f'yr – "kengaytirmoq", "cho'zmoq" fe'li yotgan bo'lishi mumkin [24]. Lekin bizningcha, bu nom Amu, Xiva, Kot, Choch, Chag'on va boshqa ko'p nomlar singari juda ham qadimiy lingvistik qatlamga mansub bo'lib, eroniy yoki turkiy tillarga aloqasi yo'q.

Rivoyatga ko'ra, sharqning bir qudratli hukmdori o'zining mamlakatidagi 400 kishidan g'azablanib, ularni yerning eng chekkasiga, ya'ni odamlar yashaydigan yerdan 100 farsax uzoqlikda joylashgan yerga olib borib tashlashni buyurdi. Shunda ularni Xvorazmga olib keldilar va bu yerdagi 400 ta turk qizlarini ularga xotin qilib berdilar. Shuning uchun ularning tabiatida turklarga xos jihatlar ko'p. Keyinchalik bu yerda Kot shahri vujudga kelgan va Xvorazmning poytaxti bo'lgan [25]. O'rta fors (pahlaviy) manbalarida keltirilgan rivoyatga ko'ra, Xvorazm (Xvārazm) poytaxtini Yahudiy o'g'li Narse (Narsēh Yahūtakān) qurdirgan [26]. Ilk o'rta asrlardagi Kot shahrining xarobalari hozirgi Beruniy shahrining yonida joylashgan bo'lib Shobboz (to'liq nomi Shoh Abbos Vali) deb ataladi.

at-Tabariy keltirgan ma'lumotga ko'ra, Qutayba xvorazmshohning ukasini va xvorazmshohga qarshi bo'lganlarning hammasini unga topshirdi. Xvorazmshoh ularning hammasini qatl etdi, ularning mol-mulkларini musodara etib, Qutaybaga yubordi [27]. Ibn A'samga ko'ra, Xurrazod akasining Qutayba bilan bitim tuzgani haqida xabar topib, uni o'ldirishga ahd qildi. U shahardan chiqib, Fanak (فناك) nomli yerda to'xtadi. Qutayba ham qo'shini bilan unga yaqin yerga keldi. Ular o'rtasida jang boshlanganda, Jang'on Qutaybaga Xvorazm poytaxtining 2 ta shahrini topshirdi va uning qo'shiniga kelib qo'shildi. Xurrazod 3-shaharda qoldi va o'zi Qutayba oldiga odam yuborib, o'zi uchun

omonlik so'radi. Qutayba unga: "Akan senga omonlik bersa, men ham beraman", – dedi. Xurrazod "Akamdan omonlik so'raguncha jangda halok bo'lganim yaxshi", – dedi va jangga kirishdi. Xurrazod asirga olinib, Qutayba oldiga olib kelindi va Qutayba uni o'ldirdi. Keyin Jang'on unga "Xurrazod bilan birga menga qarshi bo'lganlarning hammasini ham o'ldirishingni istayman", – dedi. Qutayba ularning hammasini to'plab, Jang'onga topshirdi va Jang'on ularni o'ldirdi. Keyin ularning mol-mulkini olib, Qutaybaga berdi. Qutayba ularning 1/5 qismi (xums) ni al-Hajjojga yubordi, qolganlarini esa askarlarga bo'lib berdi [28]. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, Qutayba ukasi Abdurrahmonni Xorazmshohga doimiy ravishda urush ochib turgan Homjird ustiga yubordi. Abdurrahmon u bilan jang qilib, Homjirdni o'ldirdi va uning yurtini egalladi. Qutayba bir tarafdin Abdurrahmon u yerliklardan asir olgan to'rt ming kishini o'ldirishni buyurdi, boshqa tarafdin esa Xorazmshohga ukasini va unga qarshi chiqqanlarni topshirdi. Xorazmshoh ularni o'ldirib, ularga tegishli mollarni Qutaybaga topshirdi.

Tabariyda bu voqealar ancha batafsil yoritilgan bo'lib, quyidagi ma'lumotlarni ko'rish mumkin: "Maliki Xvorazm (خوارزم)ning odi (*ismi*) Chig'on (چيغان) erdi. Va barodari bor erdikim, odi Xovarзад (yoki Xurzod (خورزاد)) erdi va bu barodari Chig'ong'a g'alaba qilur erdi. Va har vaqt eshitibki, falon yo'l bila podshohg'a kanizak va yo markabi keltiradurlar deb ul kishi yuborib o'ldirib kelturar erdi. Va agar bir uning sohibjamol qizi va yo xotuni va yo hamsherasi (همشير) bo'lsa onga kishi yuborib kelturar erdi va hech kishi oni mahn qila bilmas erdi. Vaqtiki Malik Chig'ong'a arz aytsalar: onga aytur erdiki man oning bila tob qilmaydurman. Vaqtiki, bu kordor o'zig'a tortdi, Chig'on toqat tuta bilmadikim mundin ziyoda sabr qilg'oy. Nochor kishi yuborib shahri Xvorazmg'a chorladi. Va Xvorazmning xazinalarining kalitlarini Qutaybag'a topshurdi. Bu shart bilaki agar barodarimni o'ldursangiz har ne disangiz qabul tutg'ayman va bu so'zdin hech kimni ogoh qilmayman. Va bu elchi Qutaybaning qoshig'a bordikim vaqti g'azot erdi. Qutayba lashkarni jabdug'ini dast qilib shahri Sug'dg'a borurg'a niyati azm qilg'on holati erdi. Xalqg'a mahlum qildikim, Sug'dg'a borurmiz. Ersal Malik Chig'onning elchisi qaytib javobini yetkurdi. Bas, Xovarzadni firib bila ogoh qildilarki, Qutayba Sug'dg'a borurg'a azm durust qilibdur. Ersal Xovarzad yoronlarini jam qilib, aydiki, Qutayba Qal'ai Sug'dg'a azm qilibdurmish. Sizlar oning jangidin amiyin bo'ldingizlar. Xolo(*hozir*) vaqti bahordur, sharob ichurg'a va shodliq qulurg'a mashg'ul bo'lg'aymiz. Ayni g'aflatda erdilar, banogoh Qutayba Hazorasb (هزاراسب)g'a keldi. Va bu shahridurkim Xvorazmdin. Ammo, Xvorazm uch shahardur, ulug' shahri madina al-Fildur. Va vaqtiki Qutayba yetib erdi xvorazmiylar maliki Chig'onning qoshig'a keldilar va onga aydilarkim emdi(*endi*) tadbir nadur, Chig'on aydi: barodarim Xovarzadning qoshig'a boring ersal, bular Xovarzadning qoshig'a bordilar. Va aydilar: Qutayba kelibdur, bizlarni halok qilurg'a o'xshaydur. Muni (*Buni*) nechuk qilmoq kerak, Xovarzad ul tadbirki Chig'on qilib erdi. Ondin ogoh bo'lib, xohladiki, Chig'onni o'lturgay. Qutaybaning vahmidin va lashkaridin qo'rqub, toqat qila bilmadikim, Chig'onni o'lturgay. Va xalqni jam qilib, madinat al-Filga kelib, omade bo'ldi. Malik Chig'on Hazorasb va yana bir shaharni Qutaybag'a topshirib, oning qoshig'a bordi. Ammo, Xovarzad hayratda qoldi va aydiki, man biladurmankim, emdi ulki, kerak va lekin qatlini dustroq tutadurmankim, saningdek yoronlar barodarimg'a buyunsung'ay deb, jangg'a omade bo'lib, shahardin tashqari chiqdi. Qutaybaning lashkarig'a giriftor bo'lib, oni Qutaybaning lashkarig'a kelturdilar va Qutaybaning yonig'a kelturdilar. Qutayba aytdi: nechuk ko'radursan onki xudoyi taolo on sanga nechuk qildi. Xovarzad aydi: ayyuhal amir menga malomat qilmag'il, shamshirni ul jihatdin qo'lg'a oldimkim, to

maning va saning oramizda hukm qilg'ay va lekin shamshir mani sanga giriftor (كرفتار) qildi. Qutayba aydi: andog' bo'lurki, umid tutg'onni topursan. Bas, ilgari kelturub, boshini tanidin judo qildilar. Malik Chig'on aydi: ayyuhal amir, hanuz maning aytg'onimni qilmading. Qutayba aydi: nechuk xohlaydursan. Chig'on aydi: andog' xohlaydurmanki, har kishiki oning bila hamrohdurlar, alarni ham o'lturgaysan. Qutayba aydi: hammani jam qilib, manga bergil, ersa Malik Chig'on barodarinig yoronlarini jam qilib, Qutaybag'a kelturdi. Qutayba alarni ham o'lturdi va bularning moli g'animatlarini qo'lg'a kelturdi. Ammo, Chig'on shart qilg'on erdiki, Qutaybag'a yuz banda (بنده) va yuz ming jomi (جام) libos bergay. Bu shartlarig'a vafo qildi. Qutayba madinat al-Filg'a kirib, bu mollarni qo'lg'a oldi. Chig'onning qissalarini muxtasar qilubdur, toki biz ham tamom qilduq. Bas, malik Chig'on Qutaybadin iltimos qildiki, Jom va jar (جام و جر) shaharlarining podeshohlarig'a ham yoriy berib alarni ham dafh qilg'aysizlar. Va bu podeshohlar kelib, Chig'ong'a ozor berur erdilar. Bas, Qutayba barodari Abdurahmonni yuborib, alar bila jang qilib, alarni o'lturub, to'rt ming asir bila Qutaybaning qoshig'a keldi. Qutayba farmon qildi, toki asirlarning hammalarini o'lturdilar. Ondin so'ng qaytib Marvg'a keldi" [29].

At-Tabariyga ko'ra, Qutayba Fil shahriga kirib, xvorazmshohdan sulhda kelishilganlarni qabul qilib oldi. Keyin u Hozorasbga qaytdi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Qutayba Xvorazmdan 100 ming bosh qul olib ketdi [30]. Ibn A'samga ko'ra, Xvorazm podshohi Jang'on (جنگان) Qutayba ibn Muslimga maktub yozib, unga 100 ming bosh qul va kelishilgan mol-mulklarni tayyorlab qo'ygani haqida xabar berdi [31].

At-Tabariy keltirgan ma'lumotga ko'ra, Qutayba Xvorazmdan keyin Marvga qaytmasdan Samarqandga yurish qildi, chunki sug'dlar sulhni buzib, arablarga jizya to'lamay qo'ygan edilar. U bilan birga Samarqandga buxoroliklar va xvorazmliklar ham borib, Samarqand ahliga qarshi jang qildilar [32]. Ibn A'samga ko'ra, al-Hajjoj Qutaybaga maktub yozib, unda "Biz Xvorazmni fath etib, uning boyliklari, xazinalari va o'ljalarini qo'lga kiritdik. Endi Samarqandga borib, ularning yeri, uylari va boyliklariga merosxo'r bo'laylik", – dedi. Qutayba al-Hajjojning maktubini askarlarga o'qib berdi. Shundan keyin u yo'lga chiqib, Samarqand yoniga kelib to'xtadi [33].

Xulosa qilib aytganda, arablar tomonidan Xorazm hududiga 2 bosqichda harbiy yurishlar tashkil etiladi. Birinchi bosqich, asosan, talonchilik maqsadida bo'lib, arablar bilan shartnoma imzolanishi hamda katta miqdorda o'lpon to'lanishi bilan yakunlanadi. Ikkinchi bosqichda ikki harbiy yurish amalga oshiriladi. Birinchisi 711–712-yillarda xorazmshoh Chag'on iltimosi bilan amalga oshirilgan, uning ukasi Xurzod o'ldirilib, xorazmliklar islomni qabul qiladi, lekin xorazmliklarning harbiy kuchi sindirilmaydi. Ikkinchi yurishda, Beruniy ma'lumotlariga ishonsak, tahminan 714-yilda, Farg'ona va Toshkent yurishlaridan oldin uyushtiriladi va xorazmliklar islomdan chiqqani uchun jazolanib, Askajmuk ibn Azkojvor Xorazmga hukmdor etib tayinlanadi.

Ibn al-Asirga ko'ra, Qutaybaning Xorazmda qoldirgan urush qo'mondoni Iyos ibn Abdulloh ojiz kishi edi. U yerning xaraj yig'uvchi omili esa Muslimning ozod qilingan quli Ubaydulloh ibn Ubaydulloh edi. 714-yil boshida Xorazm ahli Iyosning zaifligini ko'rib unga qarshi birlashdilar. Ubaydulloh Qutaybaga maktub yozganidan so'ng, Qutayba ukasi Abdullohni u yerga omil qilib yubordi va Iyos hamda Hayyon an-Nabatiyga yuztadan qamchi urishni buyurdi. Abdulloh Xorazmga yaqinlashganda Iyosga xabar yuborib uni qo'rqitdi. U esa chekinib ketdi. Abdulloh kelib Hayyonni tutib, unga qamchi urib, sochlarini tiqirlatib oldirdi. Keyin Qutayba Mug'ayra ibn Abdulloh bilan birga Xorazm ustiga askar yubordi. Xorazmliklar buni eshitib, tayyorgarlik ko'rdi. Mug'ayra ularga yetib

kelganda, Xorazmshoh o'ldirgan kishilarning farzandlari undan ajralib: «Biz senga yordam bera olmaymiz», deyishdi. Xorazmshoh esa turklar yurtiga qochdi. Mug'ayra kelib, ba'zilarini o'ldirdi, ba'zilarini asirga oldi. Qolganlar u bilan jizya to'lash sharti bilan tinchlik qildilar. Mug'ayra keyin Qutaybaning huzuriga qaytdi, Qutayba uni Nishopurga omil qilib tayinladi [34].

Boshqa mintaqalarda bo'lgani singari Xorazmdan ham iqtidori bor, sarkardalik salohiyati bo'lgan shaxslar xalifalik xizmatiga qabul qilingan. Shulardan biri Astarxon al-Xorazmiy hisoblanadi. Uning nomi hijriy 147-yil (m. 764–765) voqealarida esga olinadi. Ibn al-Asirda quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: “Bu yilda Astarxon al-Xorazmiy turklardan iborat qo'shin bilan Armaniston atrofiga hujum qilib, talon-taroj qildi, musulmonlar va zimmiylardan ko'p kishilarni asirga oldi va Tifliska kirdi. Harb ibn Abdulloh o'sha paytda ikki minglik qo'shin bilan Mosulda xoriyjiylar bo'lgan joyda edi. Mansur turklar bilan urushish uchun Jabroil ibn Yahyo va Harb ibn Abdullohni yubordi. Jangda Jabroilning qo'shini mag'lub bo'ldi, Harb ibn Abdulloh va Jabroilning askarlaridan ko'p kishi halok bo'ldi” [35]. Yuqorida tilga olingan xorazmlik haqida tarixiy manbalarda aniq ma'lumotlar yo'q. U katta ehtimol bilan xalifalik xizmatiga kirgan xorazmshohlar avlodidan bo'lsa kerak.

XULOSA

Umuman olganda, Xorazmda arablarning dastlabki hukmronligi beqaror hisoblangan. Bunga Xorazmning geografik joylashuvi ham muhim o'rin tutgan. Hijriy 110-yilda. (mil. 728) Xorazm shimolida, hozirgi Qorqolpag'iston Respublikasi Nukus tumani hududidagi Kerder shahri va uning atrofida qo'shni ko'chmanchi turkiy qabilalar tomonidan qo'llab-quvvatlangan qo'zg'olon ko'tariladi, biroq qo'zg'olon uyushmagan holda tashkil etilgaligi sababli o'sha yiliyoq bostirialdi. Ushbu voqeadan keyin siyosiy vaziyat nisbatan barqarorroq bo'ldi. Qadimgi sulola vakillari 995-yilga qadar xalifalikning cheklangan vassallari sifatida Xorazm ustidan hukmronlik qilishda davom etdilar.

Xorazm hukmdorlarining arablar istilosiga qarshi kurashi o'rta asr Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutadi. Bu qarshiliklar faqatgina harbiy to'qnashuvlar bilan emas, balki siyosiy ittifoqlar, mahalliy boshqaruvni mustahkamlash va diniy mustaqillikni saqlab qolish orqali olib borilgan. Arablar istilosi nihoyatida Xorazm xalifalikka bo'ysunsa-da, bu hududdagi qarshiliklar xalqlarning o'z erkinligi, madaniyati va dini an'analari saqlab qolishga bo'lgan qat'iy intilishidan dalolat beradi. Ushbu tarixiy davr Xorazm aholisining irodasi, siyosiy ongining shakllanishi va mustaqillikka intilishi nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ataxodjayev A.M., Zamonov A.T., Xalmuminov U.R., Maxammadiyev A.T., Ismoilov A.I., Abdusodiqov S.Z. O'zbekiston tarixi. I qism. Darslik. – Toshkent: Bayoz, 2024. – B. 515.
2. Беруний. Танланган асарлар. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 71.
3. Беруний. Танланган асарлар. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 71.
4. Ibn el-Athiri. Chronicon quod perfectissimum inscribitur, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. IV. 82.
5. Ibn el-Athiri. Chronicon quod perfectissimum inscribitur, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. IV. 90.

6. Ibn el-Athiri. *Chronicon quod perfectissimum inscribitur*, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. IV. 91-92.
7. Ibn el-Athiri. *Chronicon quod perfectissimum inscribitur*, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. IV. 92.
8. История ат-Табари. – Ташкент, 1987. – С.50.
9. Ibn el-Athiri. *Chronicon quod perfectissimum inscribitur*, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. IV. 82; Abū Muḥammad 'Abd Allāh ibn Muslim Ibn Qutayba. *Kitab al-ma'arif*. 1996. IX. – P. 177.
10. Al-Balazuri. *Liber expugnationis regionum*, auctore Imamo Ahmed ibn Jahja ibn Djabir al-Belol, quem a codice Leidensi et codice Musei Britannici ed. M.J.de Goeje, Lugduni Batavorum, 1866. – P. 413; Sachau Ed. *Zur geschichte und chronologie von khwarizm*. – Wien, 1873. – P. 31-32.
11. История ат-Табари. – Ташкент, 1987. – С.50.
12. Хорезм в истории государственности Узбекистана // Отв. ред. Э.В. Ртвеладзе, Д.А. Алимова. – Ташкент, 2013. – С. 102.
13. Ibn el-Athiri. *Chronicon quod perfectissimum inscribitur*, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. IV. 147.
14. История ат-Табари. – Ташкент, 1987. – С.98.
15. Abu Muhammad Ahmad ibn A'tham al-Kufi. *Kitab al-Futuh* / Ed. by Sayyid 'Abdul Wahab Bukhari (First Edition). I – VIII volumes. Hyder- abad: Osmaniya University, 1388 1390 – 1390/1968. 1970. VII. – P. 235.
16. Sachau Ed. *Zur geschichte und chronologie von khwarizm*. – Wien, 1873. – P. 31-32.; Chavannes E. *Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux* // Сборник трудов Орхонской экспедиции, вып. 6. СПб., 1903. – P. 409.; Abu Djafar Mohammed ibn Djarir at-Tabari, *Annales* / Ed. M.J. de Goeje, I – III series. Lugduni Batavorum: E.J.Brill, 1964. II. – 1236-2141.
17. Abu Djafar Mohammed ibn Djarir at-Tabari, *Annales* / Ed. M.J. de Goeje, I – III series. Lugduni Batavorum: E.J.Brill, 1964. II. – 1236-2141.
18. Abu Muhammad Ahmad ibn A'tham al-Kufi. *Kitab al-Futuh* / Ed. by Sayyid 'Abdul Wahab Bukhari (First Edition). I – VIII volumes. Hyder- abad: Osmaniya University, 1388 1390 – 1390/1968. 1970. VII. – P. 235.
19. Abu Muhammad Ahmad ibn A'tham al-Kufi. *Kitab al-Futuh* / Ed. by Sayyid 'Abdul Wahab Bukhari (First Edition). I – VIII volumes. Hyder- abad: Osmaniya University, 1388 1390 – 1390/1968. 1970. VII. – P. 236.
20. Ibn el-Athiri. *Chronicon quod perfectissimum inscribitur*, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. IV. 147.
21. Abu Muhammad Ahmad ibn A'tham al-Kufi. *Kitab al-Futuh* / Ed. by Sayyid 'Abdul Wahab Bukhari (First Edition). I – VIII volumes. Hyder- abad: Osmaniya University, 1388 1390 – 1390/1968. 1970. VII. – P. 236.
22. Abu Djafar Mohammed ibn Djarir at-Tabari, *Annales* / Ed. M.J. de Goeje, I – III series. Lugduni Batavorum: E.J.Brill, 1964. II. – 1281.
23. Ибн Хордадбех. Книга путей и стран / Пер. с араб., коммент., иссл., указ. и карты Н. Велихановой. Баку: Элм, 1986. – С. 66.
24. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии / Дисс. ... к. филол. н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004. – С. 200

25. Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin al-Moqaddasi. Descriptio Imperii moslemici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni Batavorum: E.J.Brill, 1967. – P. 285-286.
26. Markwart J. A Catalogue of provincial capitals of Eran- shahr / Pahlavi text, version and commentary. Roma, 1931. – P. 11.
27. Abu Djafar Mohammed ibn Djarir at-Tabari, Annales / Ed. M.J. de Goeje, I – III series. Lugduni Batavorum: E.J.Brill, 1964. II. – 1239.
28. Abu Muhammad Ahmad ibn A'tham al-Kufi. Kitab al-Futuh / Ed. by Sayyid 'Abdul Wahab Bukhari (First Edition). I – VIII volumes. Hyder- abad: Osmaniya University, 1388 1390 – 1390/1968. 1970. VII. – P. 235-236.
29. 1229. 585 A
30. Abu Djafar Mohammed ibn Djarir at-Tabari, Annales / Ed. M.J. de Goeje, I – III series. Lugduni Batavorum: E.J.Brill, 1964. II. – 1237.
31. Abu Muhammad Ahmad ibn A'tham al-Kufi. Kitab al-Futuh / Ed. by Sayyid 'Abdul Wahab Bukhari (First Edition). I – VIII volumes. Hyder- abad: Osmaniya University, 1388 1390 – 1390/1968. 1970. VII. – P. 235.
32. Abu Djafar Mohammed ibn Djarir at-Tabari, Annales / Ed. M.J. de Goeje, I – III series. Lugduni Batavorum: E.J.Brill, 1964. II. – 1241-1244.
33. Abu Muhammad Ahmad ibn A'tham al-Kufi. Kitab al-Futuh / Ed. by Sayyid 'Abdul Wahab Bukhari (First Edition). I – VIII volumes. Hyder- abad: Osmaniya University, 1388 1390 – 1390/1968. 1970. VII. – P. 239.
34. Ibn el-Athiri. Chronicon quod perfectissimum inscribitur, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. IV. 168.
35. Ibn el-Athiri. Chronicon quod perfectissimum inscribitur, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. V. 268.